

# **INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS AND THEIR SOLUTIONS**

## **VOLUME 3, ISSUE 1, 2024**

### **MARKETING-INTERNET XIZMATLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA SAVDO KORXONALARI RAQOBATBARDOSHЛИGINI OSHIRISH**

*Obidov Ibrohimjon Mahammadjon o'g'li*

*Andijon mashinasozlik instituti, 4-kurs, Iqtisodiyot yo'nalishi talabasi*

*G.A.Sattikulova*

*Ilmiy rahbar Iqtisodiyot kafedrasi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada marketing asosida savdo korxonalarini savdo ulushini oshirish haqida so'z boradi. Hozirgi vaqtida iqtisodiyot va u bilan bog'liq bo'lgan bir qancha samarali texnologiya hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda.

**Kalit so'zlar:** Marketing, raqamli, iqtisodiyot, savdo, korxona, SMM, menejment, savdo ulushi.

#### **KIRISH**

Marketing savdosi rivojlanish uchun muhim bo'lgani uchun ham davlat va jamiyat taraqqiyotini yanada jadallashtirish respublikamiz rahbariyati bir qancha muhim qarorlarni qabul qildi. Masalan, O'zbekiston prezidenti 2018 yil 28 dekabrdagi 2019 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqida Oliy Majlisiga Murojaatnomasida ham respublikada iqtisodning rivojlanishi bo'yicha axborot aytib o'tdi: "Iqtisodiyotning barcha sohalarini shaxsiy resurslar asosidagi yangilanishini ko'zda tutadigan "Raqamli iqtisodiyot milliy kontseptsitasi"ni ishlab hiqishimiz kerak. Shu asosda "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturini hayotga tadbiq etishimiz zarur. Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki shaxsiy kamida 30 foizga o'stirish, korrupsiyani keskin oshirish beradi. Nufuzli halqaro o'tkazgan tahlillar ham buni tasdiqlamoqda. Bu axborot havfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish zarur". Investitsiya va tadbirkorlikni diversifikatsiya qilish uchun kriptoaktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyatni, jumladan, mayining, smart kontrakt, konsalting, emissiya, ayriboshlash, axborotlashtirish, saqlash, taqsimlash, boshqarish, sug'urtalash, kraud-funding (jamoaviy moliyalashtirish), shuningdek, blokcheyn texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirish bugungi dolzarb avzulardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida marketing faoliyatida innovatsion marketing texnologiyalari: internet marketing, one-to-one (munosabatlar) marketingi, mobil marketing, to'g'ridan-to'g'ri marketing yo'nalish va shakllarini rivojlantirish, korxona va haridorlar aloqalarini o'zaro online tarzda tashkil etish, marketing tadqiqotlarini olib borish, tovar va xizmatlarni siljitishda interaktiv marketing uslublaridan foydalanish dolzarb masala hisoblanadi. Shuningdek, korxonalar faoliyatida interaktiv va raqamli marketingning nazariy hamda amaliy tomonlarini o'rganish bilan bir qatorda bozor sharoitida korxonalarining amaliy faoliyatida paydo bo'ladigan muammolar bilan bog'liq xulosalarni shakllantirishda va ularning yechimini topishga e'tiborini qaratadi. Shu boisdan korxonalarda raqamli iqtisodiyotning eng yaqin yordamchisi bo'lgan mobil marketingdan foydalanish muhim mezon sifatida aralmoqda. Jamiyat hayotida axborot asrining davom etishi va takomillashishi

oqibatida barcha sohalarda axborot texnologiyalarining kirib borishi kuchaymoqda. Shu jumladan marketing sohasida ham axborot va internet texnologiyalarining o'rni beqiyosdir. Axborot texnologiyalari orasida mobil texnologiyalari ham marketingning zamonaviy jahbalaridan biri sifatida shakllangan. Mobil marketing - bu marketingning nisbatan yangi sohasi bo'lib, mobil qurilmalar

kompaniya va mijozlar o'rtasidagi ikki tomonlama marketing aloqalarini ta'minlaydi. Marketing kompaniyalarining yuqori samaradorligi mobil qurilmalar bilan ishlatilganda yana ham ko'payadi. An'anaviy ommaviy axborot vositalaridan ko'ra mobil qurilmalar orqali tovarlar va xizmatlarni sotib olishlarni potensial mijozlar ko'proq xoxish bildirmoqdalar. Mobil marketingning rivojlanishida aloqa vositalari va mobil aloqa texnologiyalari ahamiyati yuqoridir. Ular quyidagi xususiyatlarga ega: Mobil telefon va mobil aloqa muhiti Mobil aloqa xizmati operatorlari Mobil aloqa hizmatlari: so'zlashuv, mobil internet va pochta Mobil aloqa vositalari: Smartphone, iphone

# INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS AND THEIR SOLUTIONS

## VOLUME 3, ISSUE 1, 2024

va planshetlar Mobil aloqa vositalari yordamida axborot almashish: Bluetooth, SMS va MMS Mobil telefonlardan foydalanish va axborot almashish madaniyati. Mobil marketingning rivojlanishida mobil telefon jihozining o'ni beqiyosdir. Mobil telefon - mobil aloqada telefon apparati turi olinadi. Hozirgi kunda, mobil telefon telefon va ekranga hamda sensor ega bo'lib astasekin kompyuter, faks apparati, telefon apparati, qaydlar kitobchasini bajaruvchi ko'p maqsadli abonent tizimga aylammoqda. Mobil aloqa muhiti tayanch stansiyalar va bir guruh abonentlar tizimidan iborat bo'lib, abonentlarning bir-birlari bilan o'zaro almashinuvini ta'minlovchi texnik ozuqa majmuasidir. Mobil aloqa tizimida barcha ma'lumotlar mobil telefon orqali elekromagnit to'lqinlari ko'rinishida simsiz havo orqali uzatiladi. Xulosa qilib aytganda, ushbu tizimning ishga tushirilishi), mahsulotlar haqida xaridni amalga oshirgan mahsulot (to'g'risida fikriga ega bo'lish (axborot olish), doimiy holatda saqlash bo'lgan lishni amalga oshiradi. Mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada o'sishida korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun, milliy tovarlarning tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ta'minlaydigan yangi turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish, eksport faoliyatini soddalashtirish va erkinlashtirish, eksport tuzilmasini diversifikatsiya qilish, eksportga ixtisoslashgan qo'shma korxonalarini barpo etish, iqtisodiyot tarmoqlarining eksport salohiyatini kengaytirish, eksportni kengaytirishga qaratilgan strategiyani faol qo'llash bilan bir qatorda importning salmog'ini qisqartirishga qaratilgan ishlarni jadal olib borish zarur. Tadqiqotning nazariy asosini O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari, tashqi savdo faoliyati bo'yicha ko'rsatmalar va normativ materiallar tashkil etadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo'naliishlari:

- tashqi savdo faoliyati;
- xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik;
- chet el investitsiyalarini jalg qilish.

Tashqi savdo faoliyati – bu mahsulotlar, mehnat, xizmatlar, axborotlar va intellectual soha natijalari bo'yicha dunyo miqyosida tadbirkorlik faoliyatidir. Tashqi savdo faoliyati tovarlarni, xizmatlarni eksport va import qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyati - bu xalqaro ishlab chiqarish integratsiyasi va kooperatsiyasi, tovar va xizmatlar eksporti va importi, tashqi bozorga chiqish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat sohasi. Korxonalar tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy shakllari tashqi savdo faoliyati va ishlab chiqarishning xalqaro kooperatsiyasi hisoblanadi.

Korxona uchun iqtisodiy faoliyatni muvaffaqiyatlari tashkil etishda murakkab bo'lgan jarayon – bu kuchli raqobat sharoitida faoliyat yuritishdir. Shuning uchun iqtisodiyot tarmog'idagi jami ishlab chiqarish korxonalarini va tashkilotlari, shu bilan birga xizmat ko'rsatish sohasida ham raqobatbardosh muhitni hosil qilish, jahonda ro'y berayotgan kuchli raqobat sharoitida ularning faoliyatini takomillashtirish, diversifikatsiya qilish, yangi innovatsion texnologiyalarni qo'llash, moliyaviy jozibadorlikni oshirish bilan chet el investitsiyalarini jalg qilish, jahon tajribasidan kelib chiqqan holda yangicha boshqaruv usullarini qo'llash lozim bo'ladi. Yana shuni ta'kidlash jozki mavjud hom ashyo zaxiralaridan foydalanib yuqori qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va ushbu mahsulotlarni tashqi bozorlarda sotish, buning natijasida mamlakatga eksportdan valyuta tushumini bir necha barobarga oshirish zarur.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar sifatini muntazam ravishda yaxshilab borish korxonaning muhim siyosati va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan vaziyatdir. Bu vaziyatning tinmay amalga oshirilib borishi moddiy-texnika bazasi yaratilishiga munosib hissa

# **INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS AND THEIR SOLUTIONS**

## **VOLUME 3, ISSUE 1, 2024**

qo'shish demakdir. Yuqori sifat, mehnat va moddiy resurslarni tejash, eksport imkoniyatlarini oshirish, korxonaning pirovard maqsadi bo'lishi lozimdir.

Undan tashqari korxonalarning tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyaviy ta'minlashning mexanizmini qo'llash natijasida quyidagi imkoniyatlarni ta'minlash muhimdir. Xususan:

- amalga oshirilayotgan tashqi iqtisodiy operatsiyalar samaradorlik darajasining yuqori saviyada bo'lishi;
- ixtiyoridagi moliyaviy resurslarni nazorat qilish;
- tashqi savdo bitimlari va pul majburiyatlarining mos keluvchi shaklda va belgilangan muddatda amaldagi milliy qonunchilik me'yorlari va xalqaro bank qoidalari rioya qilish asosida bajarishi;
- innovatsion strategiyalar asosida rivojlanish, ishlab chiqarishni doimiy modernizatsiya qilish, samarali investitsion va innovatsion siyosat yuritish salohiyati.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni mamlakat uchun zarur va ustuvorligini quyidagi misollar bilan ifodalash mumkin:

1. mamlakatning eksport qudratini rivojlantirish va yanada mustahkamlash;
2. eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish;
3. eksport imkoniyatini kengaytirish, jahon bozorlariga kirib boorish uchun, avvalo, xom ashyni qayta ishlash negizida tayyor yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalarni rivojlantirish;
4. import tovarlarni mahalliylashtirish evaziga import salmog'ini qisqartishga qaratilga chora tadbirlarni amalga oshirish;
5. tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, xo'jalik ishlarini yurituvchi subyektlarga xorijiy sheriklar bilan bevosita aloqalar o'rnatishda, o'z mahsulotini chet ellarda sotishda ko'proq erkinlik berish;
6. xorijiy sarmoyalarni, asosan bevosita kapital mablag'lar tarzidagi sarmoyalarni Respublika iqtisodiyotiga keng ko'lamda jalb etish uchun zarur huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda boshqa shartsharoitlarni vujudga keltirish;
7. xalqaro huquq va tashqi iqtisodiy faoliyat, bank tizimi, hisob-kitob va statistic hisobot sohasida malakali kadrlar tayyorlashni tashkil qilish.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning mana shu va boshqa yo'nalishlarini amalga oshirish O'zbekiston iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotida yana ham yuqori o'r'in egallash imkonini beradi.

Iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat'iy nazar, dunyodagi hech bir mamlakat jahon iqtisodiyotidan tashqaridagi boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarisiz rivojlanishi mumkin emas.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Alimov A., Ahmedov I. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. T. 2022.
2. Стровский Л.Е. «Внешнеэкономическая деятельность предприятия» Учебник. 5-е изд., перераб. и доп. — М. : ЮНИТИ-ДАНА, 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy Faoliyati to'g'risidagi qonuni.
4. [http://lex.uz/pages/GetAct.aspx?lact\\_id=6734](http://lex.uz/pages/GetAct.aspx?lact_id=6734)